

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova**

Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish ..... 7

**G.G'.G'affarova**

Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil ..... 13

**K.D.Yarashev**

Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi ..... 17

**A.A.Rayimov**

O'quvchilarda akkulturativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati ..... 21

**O.A.Ashurova**

Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti ..... 25

**N.M.Aliyev**

Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari ..... 30

**S.S.Uikanov**

Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari ..... 35

**T.M.Burxanov**

O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili ..... 40

**U.R.Radjapov**

Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari ..... 44

**Sh.A.Mamajonov**

Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir ..... 48

**F.K.Yusupova**

Talabalarning ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni ..... 53

**O.O.Qodirov**

O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati ..... 58

**M.M.Mamatkodirov**

Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish .... 63

---

IQTISODIYOT

---

**X.X.Bozarov**

Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish ..... 70

---

FALSAFA

---

**I.A.Suvanov**

Globallashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar ..... 76

**A.N.Meliboyev**

Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari ..... 83

**G'.Z.Abduraxmonov**

G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari ..... 88

**S.S.Jabborova**

O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli ..... 93

**RAQAMLI JAMIYATNING INTELLEKTUAL MADANIYATI: FALSAFIY TAHLIL****ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ КУЛЬТУРА ЦИФРОВОГО ОБЩЕСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ****INTELLECTUAL CULTURE OF DIGITAL SOCIETY: A PHILOSOPHICAL ANALYSIS****G'affarova Gulchehra G'ulamjanovna<sup>1</sup>****<sup>1</sup>G'affarova Gulchehra G'ulamjanovna**

— Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti, milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedra mudiri, f.f.d., prof.

**Annotatsiya**

Bugungi davr dunyoda raqamlashtirish, axborotlashuvning kuchayib borishi, neyrobiologiya va sun'iy intellect asosida insonning ongiga, hatto qaror qabul qilishimizga ham ta'sir etish imkoniyatining rivojlanib borishi hamda madaniyatdagagi o'zgarishlar ijtimoiy taraqqiyotda oldin kuzatilmagan butunlay yangi strukturaviy o'zgarishlar, transformatsiyalarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu maqolada intellektual madaniyatning mazmun-mohiyati hamda raqamli jamiyatda intellektual madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari falsafiy tahlil etilgan.

**Аннотация**

В современном мире цифровизация, возрастающая информатизация, развитие способности влиять на человеческое сознание и даже принятие нами решений на основе нейробиологии и искусственного интеллекта, изменения в культуре вызывают совершенно новые структурные изменения, не наблюдавшиеся ранее в общественном развитии. В данной статье философски анализируется сущность интеллектуальной культуры и специфические характеристики интеллектуальной культуры в цифровом обществе.

**Abstract**

In the modern world, digitalization, increasing informatization, the development of the ability to influence human consciousness and even our decision-making based on neuroscience and artificial intelligence, changes in culture cause, completely new structural changes that have not been observed before in social development. This article philosophically analyzes the essence of intellectual culture and the specific characteristics of intellectual culture in a digital society.

**Kalit so'zlar:** intellekt, madaniyat, intellektualmadaniyat, intellektualkompetentsiya, jamiyat, yoshlar, raqamlashtirish, raqamljamiyat, tafakkur, o'zgarish, kognitivtransformatsiyalar, strukturaviyo'zgarishlar.

**Ключевые слова:** интеллект, культура, интеллектуальная культура, интеллектуальная компетентность, общество, молодежь, сознание, цифровизация, цифровое общество, мышление, изменение, когнитивные трансформации, структурные изменения.

**Key words:** intellect, culture, intellectual culture, intellectual competence, society, youth, consciousness, digitalization, digital society, thinking, change, cognitive transformations, structural changes

**KIRISH**

O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklari insoniyat o'z rivojlanishining axborot bosqichiga kirganligi bilan ajralib turdi, bu raqamli texnologiyalarning tobora kuchayib borishi bilan tavsiflanadi, ularning hamma joyda tarqalishi odamlarning ijtimoiy hayotida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi. Shu sababli ham «yangi raqamli asrda hamma narsa tezlashmoqda va bu muqarrar ravishda butun jamiyatga ta'sir qiladi: siyosat, iqtisodiyot, ommaviy axborot vositalari, biznes va umumiy qabul qilingan xattiharakatlar normalari»[10, 18].

Bugungi kunda har bir davlatda milliy madaniyat, milliy identiklik, o'ziga xoslikni saqlashga intilishning ham ortib borayotganligi e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, raqamli dunyoda hayat zamonaviy axborot texnologiyalarini bilmasdan, ulardan kasbiy faoliyatda va kundalik hayatda samarali foydalanish qobiliyatisisiz mumkin emas. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi jamiyat hayatiga, aloqaning yangi turlarini yaratishga, jamoatchilik ongini va madaniyatini yuksaltirishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Zero, raqamli madaniyat zamonaviy inson umumiy madaniyatining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Shu bilan birga raqamli jamiyatning intellektual madaniyati masalasi ham bugungi kundagi dolzarb muammoga aylanmoqda. Darhaqiqat, hozirgi kunda mamlakatimizda ilm-fan, ishlab chiqarish, ta'limning yangi sohalarida malakali bakalavr, talabga ega mutaxassis tayyorlash maqsadida intellektual madaniyatni rivojlantirish tizimini joriy etish imkoniyatlariga e'tibor qaratilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki, O'zbekistonning kelgusi taraqqiyotini ilm-fan, ilmiy, ijtimoiy-

gumanitar texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot asosida boshqarish tashkil etadi. Yangi taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda axborotni yaratish, qayta ishlash, almashish va uzatish texnologiyalariga asoslangan raqamlashtirish jarayonlari amalga oshirilmoqda.

### NATIJA VA MUHOKAMA

«Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz» [1, 491].

Ma'lumki, bo'lajak mutaxassisning har qanday sohadagi intellektual hayotiylik darjasini uni tayyorlashga qo'yiladigan talablar, jamiyatimiz taraqqiyoti tendensiyalari bilan ham belgilanadi. Zamonaviy texnologiyalardan, jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanish yuksak intellektual madaniyatga ega mutaxassislar uchun mayjud bo'lib, bu ularning intellektual salohiyatidan oqilona foydalanishga asoslangan. Zamonaviy sivilizatsiya axborotlashtirish davrida mavjud bo'lib, inson tomonidan olingen barcha bilimlarni jamiyat manfaati uchun qo'llashni har tomonlama ta'minlashga qaratilgan. Vaholanki, bugungi murakkab, tahlikali, ziddiyatli, tez o'zgaruvchan davrda intellektual rivojlangan shaxsga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ularning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish uchun yangi jamiyat endi zarur ma'lumotlarga, shaxslararo o'zaro munosabatlarning yuqori darajasiga va do'stona interfeysga ega bo'lgan barcha asosiy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, aqliy faoliyat va intellektual madaniyatning inson hayotidagi ulushi yanada yaqqol namoyon bo'ladi va inson faoliyatida sezilarli rol o'ynaydi.

Xo'sh intellektual madaniyat nima?

Avvalo, intellekt so'zining mazmun-mohiyatiga to'xtalsak. Ushbu atama lot. intellects — bilish, tushunish, idrok qilish ma'nosini bildirib[12], insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda ayan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlesh, o'qish-o'rghanish, dunyonи bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqeahodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati hisoblanadi.

Madaniyat atamasi esa jamiyat, inson ijodiy kuch va qobiliyatları tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasini bildiradi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli ko'rinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalanadi[11]. «Madaniyat» tushunchasi muayyan tarixiy davr (antik Madaniyat), konkret jamiyat, elat va millat (o'zbek madaniyati), shuningdek, inson faoliyati yoki turmushining o'ziga xos sohalari (mas, mehnat madaniyati, badiiy madaniyat, turmush madaniyati)ni izohlash uchun qo'llaniladi. Tor ma'noda «madaniyat» atamasi kishilarning faqat ma'naviy hayoti sohasiga nisbatan ishlatalidi.

Intellektual madaniyat atamasi yuqoridagi ikki tushunchaning birikmasidan iborat bo'lib, «ma'naviy boylikni rivojlantirish o'chovi bilan tavsiflangan shaxsning rivojlanish darjasini bo'lib, u ta'lim, mustaqil fikrlesh, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tushunish, bilimlarni to'ldirishga bo'lgan faol intilish, biznesga ijodiy yondashish, hodisalarni qarama-qarshiliklarda ko'rish va baholash qobiliyatining kombinatsiyasi» hisoblanadi [6,19]. Shu bilan birga, intellektual madaniyat bilimlarni o'rghanish va to'ldirish qobiliyati hamda aqliy mehnat madaniyati sohasidagi bilim va ko'nikmalar majmui, kognitiv faoliyat maqsadlarini aniqlash, uni rejalashtirish, turli usullarda bilish operatsiyalarini bajarish, manbalar, orgtexnika vositalari bilan ishslash, axborot texnologiyalarini o'zlashtirish; o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanishdir. Intellektual madaniyat aqliy tarbiya jarayonida shakllanadi, o'quv jarayonida va sinfdan tashqari ishlarda amalga oshiriladi.

Raqamli jamiyatda intellektual madaniyat qanday ko'rinishga ega bo'ladi? Ushbu jamiyatda insonlarning ta'lim, mustaqil fikrlesh, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tushunish, bilimlarni to'ldirishga bo'lgan faol intilish, biznesga ijodiy yondashish xususiyatlari qanday bo'ladi?

Avvalo, ushbu savollarga javob berishdan oldin raqamli jamiyat nima, u qanday xususiyatlarga ega ekanligiga to'xtalib o'tsak.

«Raqamli jamiyat» atamasi raqamli axborotning mavjud resurslaridan, tegishli texnologiyalardan va jamiyatning ijtimoiy tuzilmalaridan kelib chiqadi. Bunday jamiyatning istiqbollari kelajakda jamiyatning rivojlanish talablari, mavjud axborot resursi, jamiyatda axborot almashish texnologiyalarining rivojlanishi, uning ijtimoiy tuzilishini ushbu jarayonlar bilan muvofiqlashtirish imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Raqamli jamiyat—bu infratuzilmasi raqamli texnologiyalar (katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt texnologiyalari, algoritmlar va algoritmik tizimlar, bulutli hisoblash va boshqalar) orqali ishlaydigan jamiyat[2, 130].

## PEDAGOGIKA

Aytish mumkinki, raqamli jamiyat–bu butun dunyo muammosi bo'lib, uning yechimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan boshqariladigan yangi global jamiyatni yaratishdir. Bunday jamiyatning asosi global telekommunikatsiya tarmoqlari tizimlari orqali axborotni to'playdigan, qayta ishlaydigan, ishlab chiqaradigan va tarqatadigan mahalliy va global kompyuter tarmoqlaridan foydalanish hisoblanadi. Shunday qilib, yangi raqamli jamiyat IT jamiyatidir.

Ushbu jamiyatning o'ziga xos xususiyatlaridan biri – zamonaviy raqamli (axborot-kommunikatsiya) texnologiyalari yordamida ko'plab hayotiy, kognitiv, estetik va boshqa ehtiyojlar qondirilmoqda. Natijada u ko'p vaqtini bo'shatadi, yangi muammolarni hal qilish imkonini beradi, nafaqat ma'lum bir joy, balki butun sayyora miqyosida aloqa ko'lamini kengaytiradi. Ayniqsa, intellektual mehnat jismoniy mehnat o'rnni egallaydi. Shu jihatdan ham «raqamli jamiyat - bu o'z-o'ziga xizmat qilish uchun raqamli qurilmalardan foydalanadigan texnokratik jamiyat»dir [9, 9]. Bu ko'p vaqtini bo'shatadi va ijtimoiylashuv uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Darhaqiqat, raqamli texnologiyalar keng miqyosda ishlash uchun vositadir, shu bilan birga ijtimoiy o'zgarishlar, innovatsiyalarni amalga oshirish va muvofiqlashtirish mexanizmi, muloqot uchun eng muhim platforma hisoblanadi. Yoshlar ushbu o'zgarishlarning faol subyekti bo'lib, uning madaniyatini yangi ijtimoiy dunyoni barpo etuvchi keng qamrovli ommaviy axborot vositalari madaniyati sifatida tushunish kerak.

Raqamli jamiyat – jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi bo'lib, unda eng muhim qadriyat umuman axborot emas, balki, birinchi navbatda, uning raqamli formati, raqamlashtirish usullari, axborotni kodlash va uzatish usullari hisoblanadi.

Raqamli jamiyatda globallashuv, axborotlashtirish, virtualizatsiya jarayonlari asosan odamlar hayotini belgilaydi. Bu hodisalar tevarak-atrofdagi voqelikni tubdan o'zgartiradi, hozirgi davrdagi inson taqdirining «qiyinchiliklarini» belgilab beradi va aytish mumkinki, konstruktiv ravishda yangi dunyo va yangi shaxsnı shakllantiradi.

M.T.Ryumina o'z maqolasida raqamli jamiyatdagi inson muammosini o'rganishga qaratadi. Uning ta'kidlashicha, «inson tabiatini o'zgartirish, odamning transhumanga, keyinroq esa postinsonga aylanishiga olib keladi. Bu jarayonda konstruktivizm tamoyili muhim ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy sohada, fan va umuman madaniyatda konstruktivistik tafakkur va dunyoqarash shakllanmoqda»[7]. Darhaqiqat, konstruktivizmnинг inqilobchilik, operativlik, samaradorlik, texnikizm, pragmatizm, reduktsionizm, utilitarizm kabi xususiyatlari mavjud.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Inson virtual makonda bo'lib, unda o'zining yangi borlig'iga ega bo'ladi, ayni paytda uning ongida real olamning qiymati doimiy ravishda pasayib boradi hamda virtual va real o'tasidagi chegara tobora xiralashib boradi. Bularning barchasi zamonaviy ilmiy nutqda «raqamli madaniyat» deb ataladigan yangi turdag'i madaniyat paydo bo'lganidan dalolat beradi. Shu sababli ham «bugungi kunda raqamli madaniyatni o'rganish uning hodisalari va artefaktlarini o'z-o'zidan tahlil qilish emas, balki raqamli texnologiyalarning madaniyatda tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan keng ko'lamli o'zgarishlarni o'rganish»[8] zarur. Ya'ni axborot asrida madaniy paradigmalarning o'zgarishining fundamental holatlarini tahlil qilish, zamonaviy hayotning texnologik va ijtimoiy voqeliklarini sodir bo'layotgan voqealarning umumiyl manzarasi bilan chambarchas bog'lash, raqamli texnologiyalarni yaratish jarayonida insonning faol roli va ulardan foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim. Aks holda bu ba'zan jiddiy muammo va tahdidlarni, ijtimoiy munosabatlar sohasida o'ta salbiy oqibatlarga olib keladi hamda shaxsiy darajada axloqiy va psixologik ziddiyatli muammolarni keltirib chiqaradi.

D.N.Karpovaning ta'kidlashicha, raqamlashtirish «axborotni raqamli shaklga aylantirishning global jarayoni bo'lib, u odamlarning guruhlararo va shaxslararo munosabatlarining tabiatini tubdan o'zgaradi» [5].

L.V.Bayeva, bu yerda raqamli madaniyat «inson faoliyati sohasi va uning raqamli ob'ektlar va hodisalarni yaratish bilan bog'liq natijalari, «tirik» madaniyat ob'ektlarini, virtual makonlarni, axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan jarayonlar va hodisalarni simulyatsiya qilish bilan bog'liq» [3] sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda, biz ko'rib turganimizdek, raqamli madaniyatni aniqlashning boshlang'ich nuqtasi - bu inson ijtimoiy mavjudot va uning faoliyati, balki o'zi ham inson faoliyati mahsuli bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari emas.

Shu sababli, ishlab chiqarish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxsnинг o'zini ham, u yaratgan artefaktlarni (raqamli texnologiyalar) ham o'z ichiga olgan raqamli madaniyat boshqa jihatda tahlil qilinishi mumkin, bu raqamlashtirishning turli sohalarga ta'sirini birinchi o'ringa qo'yadi[4].

Raqamli madaniyat – bu jamiyat bilan o'zaro aloqada bo'lish va kasbiy faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun axborot-kommunikatsiya raqamli texnologiyalaridan ustun foydalanishni tavsiflovchi tamoyillar va vakolatlar to'plami. Darhaqiqat, raqamli madaniyat deganda xizmatlarni raqamlashtirish va madaniyat sohasida axborot makonini shakllantirish tushuniladi. Shunday qilib, zamonaviy madaniyat sohasidagi yetakchi tendentsiya an'anaviy qadriyatlar, madaniy faoliyat shakllari va turlarini raqamli shaklga o'tkazish ekanligini ta'kidlash mumkin.

Deyarli har qanday faoliyat sohasida biz katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlash, qidirish va tahlil qilish zarurati bilan duch kelamiz. Axborotdan oqilona foydalanish va mazmunli natijalarga erishish uchun bizga raqamli madaniyat kerak bo'ladi.

Zamonaviy jamiyatda raqamli madaniyatining asosiy xususiyatlari quyidagilardir: insonning texnologik bog'liqligi, ijtimoiy aloqaning maxsus tilining paydo bo'lishi, insonning ijtimoiy va shaxsiy hayoti shakllarini soddalashtirish, inson xatti-harakatlarining dasturlashtirilishi, muloqot jarayonlarining rasmiylashtirilishi, ularning axloqiy mazmunining zaiflashishi, klip tafakkurining, dunyoni vizual idrok etishning ustunligi, insonparvarlik madaniyati an'analari bilan chuqurlashib borishi kabilar. Shu bilan birga, raqamli madaniyat ajralmas hodisa sifatida rivojlanmagan. U ta'limga sohasidagi qadriyatlarga, ta'limga muassasalarini raqamlashtirishni rivojlantirish jarayonida ishtirok etadi. Biroq raqamli madaniyat ta'limga madaniyatining o'rnini bosmasligi, balki uning tarkibiga organik tarzda kiritilishi, ta'limga rivojlantirish, uni texnologik qo'llash yo'naliishlaridan biriga aylanishi kerak.

### XULOSA

Aytish mumkinki, bugungi kunda raqamlashtirish mamlakatimiz ta'lmini rivojlantirishning yangi yo'naliishi sifatida alohida ajralib turadi. U madaniyatning barcha sohalarini qamrab oladi, ish jarayonlarida o'zgarishlar, shaxslararo muloqot, odamlarning vaqtini o'tkazish, ularning qarashlari va turmush tarzini o'zgartiradi. Bu jarayon global bo'lganligi sababli, chuqur ilmiy o'rganishni talab qiladi. Shunday qilib, raqamli jamiyat axborotni qayta ishlashning raqamli usullariga asoslangan ijtimoiy munosabatlar, hayot sohalarini va institutlarini qurish usuli bilan ajralib turadigan va ijtimoiy tuzilmalarining o'zaro ta'siri natijasida paydo bo'ladigan postindustrial rivojlanishning yangi darajasi sifatida namoyon bo'ladi. Intellektual madaniyat inqirozi, bu ijodiy fikrlovchi shaxsnинг yo'qolishiga olib keladi, bu esa ijodkorlik qobiliyatini yo'qotish, fikrlash, tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish qobiliyatining yo'qolishiga sabab bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'XATI

- Mirziyoyev Sh.M. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMU, 2020. – 508 b.
- G'affarova G.G'. Raqamli jamiyatda yoshlar ongidagi transformatsiyalar // NamDU Ilmiy axborotnomasi, 2023. № 2, 128-133 b.
- Баева Л.В. Развитие системы электронной культуры и дифференциация современного социогуманитарного знания // Философские науки. 2018. № 6. С. 89.
- Горяева Ирина Ивановна, Зорин Александр Львович Цифровая культура в информационном обществе // Культурное наследие России. 2020. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovaya-kultura-v-informatsionnom-obschestve> (дата обращения: 02.08.2023).
- Карпова Д.Н. Социотехнический поворот в исследовании цифровизации общества //<https://mgimo.ru/about/news/departments/sotsiotekhnicheskiy-povorot-vissledovanii-tsifrovizatsii-obshchestva> (дата обращения: 25.03.2020).
- Крылова Н.Б. Формирование культуры будущего специалиста. М., 1990.
- Рюмина Марина Тулеухановна ЦИФРОВОЕ ОБЩЕСТВО И ПРОБЛЕМА ЧЕЛОВЕКА // Науковедческие исследования. 2020. №2020. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovoe-obschestvo-i-problema-cheloveka> (дата обращения: 02.08.2023).
- Соколова Н.Л. Цифровая культура или культура в цифровую эпоху // <https://cyberleninka.ru/article/n/tsifrovayakultura-ili-kultura-v-tsifrovuyu-epohu> (дата обращения: 12.03.2020).
- Хазиева Н.О. — Цифровое общество: опыт философского осмысления проблемы // Философия и культура. – 2018. – № 4. – С.9.
- Шмидт Э., Коэн Дж. Новый цифровой мир: как технологии меняют жизнь людей, модели бизнеса и понятие государства. М.: Манн, Иванов и Фербер, 2013. С. 18–19.
- [11. <https://gomus.info/encyclopedia/cat-m/madaniyat-uz/>](https://gomus.info/encyclopedia/cat-m/madaniyat-uz/)
- [12. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Intellekt>](https://uz.wikipedia.org/wiki/Intellekt)